




# **“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining  
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026.   bet.

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;  
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;  
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;  
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;  
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

|    |                                                                                                                                                   |     |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|    | O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.                            |     |
| 15 | <b>Mohinur USMONOVA,</b><br>O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili                                             | 541 |
| 16 | <b>Hayotxon SALAYEVA,</b><br>Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida                                                  | 544 |
| 17 | <b>Mufassal PARDAYEVA,</b><br>Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi                                        | 547 |
| 18 | <b>Серик ТУРПАНАЛИЕВ,</b><br>Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты                                                            | 551 |
| 19 | <b>Amina DEHQONOVA,</b><br>O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar                                                                          | 554 |
| 20 | <b>Dilrabo KOMILOVA,</b><br>Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar                                   | 558 |
| 21 | <b>Mohinabonu YUNUSOVA,</b><br>Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari                                                  | 561 |
| 22 | <b>Marjona MUSULMONOVA,</b><br>Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi                                                                              | 565 |
| 23 | <b>Barchinoy TOSHPO‘LATOVA,</b><br>Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi                                                                 | 565 |
| 24 | <b>Moxlaroyim NAZAROVA,</b><br>Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini                             | 574 |
| 25 | <b>Fotima KOMILOVA,</b><br>O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini                                                                         | 576 |
| 26 | <b>Shohsanam NOMAZOVA,</b><br>Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar                                             | 580 |
| 27 | <b>Muhtarama MAMITOVA,</b><br>Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili                                     | 583 |
| 28 | <b>Lobar QULDASHEVA,</b><br>Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati              | 587 |
| 29 | <b>Sunbula HABIBULLAYEVA,</b><br>“Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)                                       | 590 |
| 30 | <b>Nilufar TURG‘UNOVA,</b><br>Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari                                        | 594 |
| 31 | <b>Sarvinov RAXIMOVA,</b><br>G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari                                                                                      | 597 |
| 32 | <b>Aziza ELMIRZAYEVA,</b><br>Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi                                                           | 599 |
| 33 | <b>Diyora NE‘MATOVA,</b><br>Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar | 605 |
| 34 | <b>Hanifa XODJIYEVA,</b><br>Mavsumiy marosimlar tasnifi                                                                                           | 611 |
| 35 | <b>Husniddin AZIMJONOV,</b><br>Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi                                                   | 614 |
| 36 | <b>Sitora O‘KTAMOVA,</b><br>Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati                                                       | 617 |

SIRDARYO VILOYATIDAGI ANDIJON SHEVALARINING FONETIK  
MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

A STUDY OF THE PHONETIC AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF  
THE ANDIJAN DIALECTS IN SYRDARYA REGION

Nilufar TURG'UNOVA,  
TOSHDOT'AVU magistranti  
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/BCYN9206

**Annotation.** *This article examines the phonetic and morphological features of the dialects spoken in the villages of Syrdarya region, within the framework of areal linguistics. The study reveals phonetic reductions, sound alternations, variations in morphological suffixes, and the richness of synonymic layers in these dialects. These phenomena demonstrate the continuous interaction between Karluk and Kipchak dialects, as well as the influence of Kazakh and Kyrgyz languages. The results contribute to a deeper understanding of Uzbek dialectology and serve as valuable material for areal linguistic studies.*

**Key words:** *Andijan dialect, Syrdarya, areal linguistics, Karluk, Kipchak, phonetic reduction, morphological suffixes, synonymic layer.*

**Kirish.** Til va uning hududiy ko'rinishlari – sheva va lahjalar, xalqning tarixi, madaniyati va turmush tarzining muhim ko'zgusi sanaladi. Shevalar nafaqat xalqning lingvistik boyligini aks ettiradi, balki turli hududlarda yashovchi guruhlarining o'zaro aloqalari, migratsion jarayonlar va areal ta'sirlarni ham ochib beradi. Shu jihatdan olganda, O'zbekistonning turli viloyatlarida shakllangan dialektal xususiyatlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki tarixiy-demografik jarayonlarni anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. O'zbek tili shevalari ko'p dialektli bo'lib turli hudud shevalari o'ziga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarga ega. Sirdaryo viloyati O'zbekistonning tarkibiy qismi sifatida, turli shevalarning aralashuvi bilan ajralib turadi. Bu viloyatda qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga mansub shevalari ham ko'p. Buning asosiy sabablaridan biri tarixiy migratsiya jarayonlari, masalan, Andijon, Farg'ona, Jizzax va Samarqand viloyatlaridan Sirdaryoga ko'chib kelgan aholining ta'siridir. Andijon shevalari fonetik jihatdan unli tovushlarning o'ziga xos artikulyatsiyasi va assimilyatsiya hodisalari bilan, morfologik jihatdan esa kelishik va fe'l shakllarining o'ziga xos affikslari bilan farqlanib turadi. Ushbu maqola Sirdaryo viloyatidagi Andijonliklar shevasining fonetik va morfologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularni mahalliy til bilan qiyoslab Andijon shevalari o'rganish maqsad qilingan.

Sirdaryo viloyati shevalari lingvistik jihatdan murakkab xususiyatga ega bo'lib, turli lahja vakillari istiqomat qiladi.

Ushbu maqolada asosan, ikkita asosiy manbaga tayanib ish ko'rdik: Sobirjon Ibrohimovning "O'zbek tilining Andijon shevasi" [Иброҳимов С., 1967:37] va A. Mamatovning "O'zbek tili leksikologiyasi materiallari" [Маматов А., 2009: 63]. Birinchi monografiyada Andijon shevasining fonetik va morfologik xususiyatlarini batafsil tavsiflab, unli va undosh tovushlar tizimi va ular bilan bog'liq fonetik hodisalari tahlil qilingan. Ikkinchi monografiya esa o'zbek shevalarining leksikologiyasiga oid materiallarni taqdim etadi, ammo unda fonetik va morfologik jihatlar ham qisman qamrab olingan (masalan, muqaddima qismida shevalar tasnifi va ularning grammatik xususiyatlari).

Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, u nafaqat Sirdaryodagi Andijon shevasining o'ziga xos jihatlarini yoritadi, balki ularni o'zbek tilining umumiy dialektologik manzarasi doirasida o'rganishga imkon beradi. Shu orqali areal lingvistika va sotsiolingvistik yondashuvlar kesishmasida yangi ilmiy natijalarga erishiladi. Avvalo, fonetik darajada *tovush tushishi va almashuvi* keng tarqalganini ko'ramiz. Masalan, Andijon shevasida olib kel birikmasi apke [äpke],

turaveraman – turoraman [tūrārāmān], ishon – ishan [īshān], munchoq so‘zi mo‘nchaq [mončaq], sakson – sahsan [sähsān], manti – monti [māntī], igna – yiyna [ijjnā], erta bilan – ettamatan [ettāmātān], piyola – piyala [pijälä], tuxum – tuqum [tūqūm], undan keyin – ineykeyin [inejkejīn], mushuk – mishiқ [mīshīq], ukol – o‘kl [ükl], kosa – kasa [käsä], pillapoya – pilampoya [pilāmpājā] – zinapoya, choynak – chaynak [čājnāk], chavli – cho‘lpi [čolpi], soch – chach [čäč], sochiq – chachiq [čäčiq], hu anavi – hono [hānā], mana shu yerda – mashetta [mäsettä], qayerga – qaqa [qäqä], yostiқ – bolish [bālīš], Andijon – Anjan [änžän] tarzida ishlatiladi. Xuddi shuningdek, *boringlar* so‘zi *borila* [bārīlā] ko‘rinishida talaffuz qilinib, ko‘plik qo‘shimchasi -lar o‘rnida -la qo‘llanadi. Bunday qisqarish va almashuvlar fonetik iqtisod prinsipini yaqqol ifodalaydi.

Morfologik jihatdan esa qo‘shimchalarning turlicha qo‘llanilishi alohida e‘tiborni tortadi. Andijon shevasida egalik va kelishik qo‘shimchalari ba‘zan adabiy tildan farqli tarzda ishlatiladi: masalan, ukamdi [ükāmdī] va ukamni [ükāmnī] shakllari ukamning o‘rnida, Jizaqqa [jīzäqqä] so‘zi esa Jizzaxga o‘rnida, ko‘ynim [köjnim] – ko‘nglim, tilfondi [tilfāndī] – telefonni o‘rinlarida keladi. Bu holat sheva grammatikasining areal diffuziyaga uchraganidan dalolat beradi.

Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik va morfologik xususiyatlarini tahlil qilishda, asosiy e‘tibor Sobirjon Ibrohimovning “O‘zbek tilining Andijon shevasi” kitobidagi misollarga va qo‘shimcha manbalarga qaratildi. Kitobning fonetika bo‘limida (18-23-sahifalar) Andijon shevasidagi unli tovushlar tizimi batafsil tasvirlangan. Masalan, unli tovushlarning artikulyatsiyasi vokal orqali ko‘rsatilgan bo‘lib, “a, o, u, e, i” tovushlarining labial va palatal variantlari, shuningdek, assimilyatsiya hodisalari (masalan, barobar – baravar) misollar bilan izohlangan. Bu xususiyatlar Sirdaryo viloyatida Andijon shevalarining ta‘sirida paydo bo‘lgan, chunki tarixiy migratsiya jarayonlari (XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidan Sirdaryoga ko‘chib kelgan aholining ta‘siri) tufayli Qipchoq lahjasidagi shevalar bilan aralashgan.

Morfologik jihatdan, Andijon shevasining xususiyatlari asosan qo‘shimcha manbalar orqali aniqlandi, chunki asosiy kitoblarda fonetika ustuvor. Masalan, G‘ozi Olim Yunusovning tadqiqotlarida Andijon shevasining qipchoq variantlarida inkor shakli uchun “me”, “mi” suffikslari ishlatilishi ta‘kidlangan (misol: “bormelik” [bārmelik] – “bormaylik”). Bu xususiyat Sirdaryo viloyatida ham uchraydi, chunki Andijonlik migrantlarning ta‘siri tufayli fe‘l shakllarida o‘tgan zamon formalarida o‘zgarishlar kuzatiladi.

Ushbu xususiyatlar Sirdaryo viloyatining til landshaftida Andijon shevalarining aralashuvini ko‘rsatadi, bu yerda fonetik jihatdan epenteza (tovush qo‘shish, masalan: “qulf” [qülüp] – “qulf” “qurt” [qürtāp] – “qurt” “shirguruch” [šīringürüč] – “shirguruch”) va proteza hodisalari, morfologik jihatdan esa suffiks o‘zgarishlari (masalan, “-d”, “-t” tushum kelishigida) Qipchoq lahjasini boyitadi. Tadqiqotlarda Andijon shevasining 14 tagacha unli tovushga ega ekanligi ta‘kidlangan, bu Sirdaryoda ham migratsiya tufayli kuzatilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik xususiyatlari quyidagilardir:

- Assimilyatsiya va epenteza: Ba‘zi so‘zlarda tovush qo‘shilishi: soat – sohat [sāhāt], shkaf – ishkaf [īškāp], stol – istol [īstāl], mix – miq [mīq], mantiqasqon – montiqosqon [māntiqāsқан], qatlama – qallama [qällämä], chiroq – chiraq [čirāq].

- Konsonantlar: Artikulyatsiya farqlari, masalan, “f” va “p” tovushlarining moslashuvi: farosat – pärāsāt, fel – pel, falonchi – pālānchī, telefon – telpān, aft – āpt.

Morfologik xususiyatlar:

- Kelishiklar: Tushum kelishigida “-d”, “-t” suffikslari: universitetni – ünverstetti, kitobni – kītābdī, paketni – päketti, maktabni – mähtābdī.

- Inkor shakllari: “-ma” affiksi: qilmaylik – qīmelik, bormaydi – bārmīdī, chiqmaydida – chīqmīttā, bormaymiz – bārmīmīz.

Bu natijalar Andijon shevalarining Sirdaryoda Qipchoq lahjasi bilan aralashganligini tasdiqlaydi, ammo shevalar o‘rtasidagi farqlar saqlanib qolgan.

Misollar shuni ko‘rsatadiki, Sirdaryodagi Andijon shevalari qarluq lahjasi xususiyatlarini saqlab qolgan holda, qo‘shni qipchoq unsurlarini ham o‘zlashtirgan. Bu esa hududiy kontaktlarning kuchliligini va areal lingvistikaning muhim qonuniyatlarini tasdiqlaydi.

Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik va morfologik xususiyatlari o‘zbek tilining boy dialektologik merosini aks ettiradi va migratsiya jarayonlarining ta’sirini ko‘rsatadi. Ushbu shevalar adabiy tilni boyitishda muhim rol o‘ynaydi, ammo urbanizatsiya va globalizatsiya tufayli8 yo‘qolish xavfi mavjud. Kelgusida dala tadqiqotlari orqali bu shevalarni batafsil o‘rganish va saqlash zarur, chunki ular o‘zbek tilshunosligining muhim qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Andijon shevalarining Sirdaryoda saqlanishini tasdiqlaydi va til siyosatida hisobga olinishi lozim.

Umuman olganda, Sirdaryodagi Andijon shevalarining fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat o‘zbek tilining ichki dialektologiyasini boyitadi, balki areal lingvistika yondashuvlari asosida yangi ilmiy natijalarga olib keladi. Shu sababli, mazkur tadqiqot o‘zbek tilshunosligi, xususan dialektologiya va areal tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ғози Олим Юнусов. Ўзбек лаҳжаларини таснифда бир тажриба. – Тошкент, 1935.
2. Иброҳим Д. Ареал тилшунослик: жануби–ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари: монография. 2019.
3. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фан нашриёти, 1967.
4. Маматов А. Андижон тип шеваларда қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши. – Тошкент, 2009
5. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси. – Тошкент, 1966.
6. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981

